



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

SHAXS MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH

Ixtiyorbek Norov

Nukus DPI O'zbek tili kafedrası

Oybek Xaytbayev

Nukus DPI O'zbek tili kafedrası

Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarga hozirgi zamon talablari darajasida bilim va tarbiya berish, ularni yuksak ma'naviyatli, ongi har qanday salbiy ta'sirlarga nisbatan bardoshli qilib voyaga yetkazish – bugungi kun ta'lim muassasalarining asosiy vazifasidir, chunki faqat ana shunday insonlarga kelajakda odil jamiyat poydevorini yarata oladilar.

“Bunday ezgu maqsadlarga faqat yuksak ma'naviyat, uzluksiz ma'naviy tarbiya orqaligina erishish mumkin” degan so'zlar har birimizning farzandlarimiz, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti, g'oyaviy chiniqishiga, har hil buzg'unchi g'oya va mafkuralarga qarshi murosasiz kurashchi ruhida tarbiyalashga mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Aynan farzandlarning kamoloti – ertangi kunda barchamizning tinch hayotimizni ta'minlaydi. Buning uchun ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularga hurlik, ozodlik, demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat barpo etish, erkin fuqarolik jamiyat asoslari haqida tushuncha berish barchamizning burchimizdir.

Insonga faqat atrof-voqelik haqida, odobu axloq qoidalari haqida bilim berishning o'zi uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo'lmaydi. Unda iroda qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ko'nglida atrof-tabiaga, mehnatga, kasbga, ilmga, o'zga insonlarga mehr uyg'otish, dilida ulug' maqsadlar tug'ilishiga erishish lozim. Masalan, tan olib aytish kerakki, Vatan yoki Adolat tuyg'usi haqida kitoblarda yozilganlarni o'qib chiqqan odam darhol Vatanning qadriga yetadigan, yoki Adolatga xiyonat qilmaydigan bo'lib qoladi, deb tasavvur qilish o'ta soddalikdir. Har bir inson Vatan, Millat, Adolat timsol- tushunchalarining o'z ruhidagi poydor ma'naviy qadriyatlarga aylanishi uchun o'zgarlar ibratida sinashi, ularga nisbatan ko'nglida mehr uyg'onishi zarur. Bunga turli yo'llar, turli vositalar bilan, birinchi navbatda yosh avlod tarbiyasiga samimiy (chin ko'ngildan) va izchil yondoshuv, tinimsiz izlanishlar bilan erishiladi.

O'zbekistonimizning barcha oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislarni faqat kasb-kori nuqtai nazaridagina emas, balki ularning



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

dunyoqarashlari, ma'naviyati, tafakkuri, siyosiy yetukligi, axloqiy barkamolligi va ijtimoiy faoliyati jihatlarini hisobga olgan holda shakllantirish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajagi buyuk davlatni ma'naviyati, aqliy qobiliyati yuqori saviyadagi kadrlar quradi.

Kelajagi buyuk davlatni ma'naviyati, aqliy qobiliyati yuqori saviyadagi kadrlar quradi. XX asrning eng yirik mutafakkirlardan biri Erix Fromm shunday ogohlantiradi:

«Agar ma'lum jamiyat kishisi ijtimoiy voqelikni idrok etolmasa, buning o'rniga miyasi har xil hayollar bilan to'ldiraversa, o'zi, oilasi yoki do'stlariga oid voqelikni tushunish ham chek-chegarali bo'ladi, u yarim mudroq holda yuradi, har tomondan kelayotgan fikrlarni qabul qilish va ishnishga tayyor yashaydi, taklif qilingan uydirmalarni haqiqat deb biladi».

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish milliy va umuminsoniy qadriyatlarning barcha imkoniyatlaridan to'la va samarali foydalanishni taqazo etadi. Jahon xalqlarining ilg'or madaniyati milliy ma'naviyatimizni yanada yuksak darajaga ko'tarishga ijobiy tomonlaridan qanchalik foydalanmaylik, bari bir o'zbek milliy qadriyatlari ma'naviy kamolotimizning asosi bo'lib qoladi.

Demak, shaxs ma'naviyatini shakllantirish va boyitish bugun butun ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilardan chuqur bilimga ega bo'lishni va yoshlar o'rtasida ta'lim va tarbiyani uzviy ravishda olib borish saloxiyati va ma'naviyatiga ega bo'lishni talab etadi. Bugun oldimizga qo'yilgan yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash mamlakatimiz tarakkiyoti va uning intellektual imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Bu vazifani amalga oshirishda ta'lim tizimining mavjud imkoniyatlaridan keng foydalanish dolzarb vazifa bo'lib qolaveradi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy ta'lim-tarbiya bugungi kunning eng dolzarb masalasi. "O'zbek xalqi azaldan o'zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta farzandga mexr qo'yish, ularni qornini to'k, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axlok-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan"¹. Bu ishga yurtimizning barcha ziyolilari, o'qituvchilar, jurnalistlar, yozuvchilar, barcha raxbarlar birdek mas'uldirlar. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiyani xozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma'naviyati yuksak barkamol yoshlarni



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

tarbiyalashga erishish mumkin bo'лади. Kelajak avlod hakida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mambetov, I. K. (2020). Artistic researches in karakalpak poetry (Based on the material of the karakalpak poetry of the 1930S). *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 56-60.
2. Kuttimuratova, I., & Mambetkerimov, G. (2021). Overview of toponymic names in Kungrat district. *Norwegian Journal of Development of the International Science*, (74-2), 46-48.
3. Kuttimuratova, I. (2021). The influence of the karakalpak language on the speech of Kazakhs of Karakalpakstan. *Norwegian Journal of Development of the International Science*, (73-2), 39-40.
4. Kurbanmuradovna, G. O. (2020). Couplet artistic structure in Turkish poetry and their typology (as an example of Uzbek, Turkmen, Karakalpak lyrics). *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 9(1), 59-65.
5. Гайлиева, О. (2019). Мустақиллик даври туркий халқлар лирикасида шаклий изланишлар ва уларнинг типологияси (ўзбек, қорақалпоқ ва туркман лирикаси мисолида). Докторлик (ДСс) диссертацияси автореферати. Нукус.
6. Kayumov, U. K., Matmuratova, S. O., Khatamova, D. T., & Saipova, M. L. (2023). Metabolic Syndrome in Women of Childbearing Age State of the Main Components. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(5), 959-963.
7. Abdiraxmanovna, Q. I. (2016). Professionalisms connected with fishing in the language of the Kazakh people in Muinak and Kungrad regions of Karakalpakstan. *Austrian Journal of Humanities and Social Sciences*, (5-6), 34-37.
8. Kayumov, U. K., Matmuratova, S. O., Khatamova, D. T., & Saipova, M. L. (2022). The Combination of Components of the Metabolic Syndrome in Women of Childbearing Age and Their Relationship with Age. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 3(6), 84-87.
9. Kurbanmuratovna, G. O. (2018). ABOUT THE COMPOSITE FEATURES OF THE TRILATERAL ART FORMS IN MODERN UZBEK, TURKMEN AND KARAKALPAK POETRY. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 7(9), 27-33.
10. Юсупова, М. А., Исмаилова, Д. У., & Матмуратова, С. О. (2017). Алгоритм ведения беременных с патологией шейки матки. *Интерактивная наука*, (12), 84-88.
11. Матмуратова, С. О. (2023). МЕТАБОЛИЧЕСКИЙ СИНДРОМ У ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(1), 10-14.

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



12. Dauletbaevich, A. K. (2022). THE COMPARATIVE VIEW OF RELIGIOUS AND SECULAR THINKING IN THE SYSTEM OF IMAGES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 9, 316-321.
13. Dauletbaevich, A. K. (2021). Study of “Kutadgu bilig (Wisdom of royal glory)” abroad. International Journal on Integrated Education, 4(3), 212-214.
14. Abdullaev, K. D. (2021). Artistic and aesthetic function of chronotops in the structure of the novel. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 1173-1179.

